

**“O‘rmon xo‘jaligi, tuproqshunoslik va o‘simliklarni himoya qilish fanlari” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida
dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1	Arid iqlim sharoitida istiqbolli yong‘oq navlarini yetishtirishning moslashuvchan agrotexnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - O‘zbekistonning hududlari kesimida oxirgi 20 yillik iqlim o‘zgarishi (harorat ko‘tarilishi, qurg‘oqchilik davri) va uning yong‘oqzorlar hosildorligiga ta’siri tahlil qilinadi; - muddatli sovuq urishi va issiqlik stressiga chidamli mahalliy va xorijiy yong‘oq navlarining genetik materiallari to‘planadi; - O‘zbekistonning arid va keskin kontinental iqlimi sharoitida istiqbolli yong‘oq navlarining issiqlik, qurg‘oqchilik va sho‘rlanish stresslariga chidamlilik darajasi ilmiy baholanadi hamda ularning eko-fiziologik modeli yaratiladi. - iqlim omillari asosida yong‘oq hosildorligini prognoz qiluvchi ilk raqamli matematik model yaratiladi; - iqlim o‘zgarishiga moslashtirilgan tomchilatib sug‘orish va mulchalash texnologiyalari bo‘yicha dastlabki agrotexnologik tavsiyalar ishlab chiqiladi; - tanlab olingan sinov dalalarida yangi agrotexnologiyalar amaliy sinovdan o‘tkaziladi; - yaratilgan raqamli model real dala ma’lumotlari bilan integratsiya qilinadi va hosildorlikni prognoz qilish aniqligi tekshiriladi; - fermer va klasterlar uchun "Iqlim o‘zgarishi sharoitida yong‘oq yetishtirish" bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqiladi va chop etiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.